

**EGRA STANDARTLARI ASOSIDA RAVON O’QISHNI SHAKLLANTIRISHDA
MULTIMEDIA RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

Davlatova Saidaxon Tojimuxammadovna
Qo’qon universiteti Ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi
Yakubova Ozodaxon Odiljon qizi
Qo’qon universiteti BT 1-22-guruh talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21132676>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisdá boshlang’ich ta’lim bosqichidagi o’quvchilarning o’qish savodxonligi darajasini tizimli va samarali baholash uchun mo’ljallangan EGRA (Early Grade Reading Assessment) xalqaro baholash dasturining chuqur ilmiy asoslari va O’zbekistonda erishilgan amaliy natijalarini yoritiladi. Maqolada EGRA dasturining mohiyati, o’tkazilish tartibi va ushbu baholash dasturi orqali olinadigan natijalarning tahlili yoritiladi. Raqamli texnologiyalarning dars jarayoniga samarasi va uning amaliy tahlili o’tkaziladi.

Kalit so’zlar. EGRA, baholash, o’qish savodxonligi, boshlang’ich sinf, natijalar, ta’lim dasturi.

Абстрактный. В статье обсуждается сущность программы EGRA, порядок ее реализации и анализ. В данной научной работе рассматриваются глубокие научные основы международной программы оценки уровня грамотности чтения в начальной школе (EGRA), предназначенной для систематической и эффективной оценки уровня грамотности учащихся начальной школы, а также практические результаты, достигнутые в Узбекистане. Результаты, полученные в рамках данной программы оценки. Проводится анализ влияния цифровых технологий на учебный процесс и его практическое изучение.

Ключевые слова: EGRA, оценка, грамотность чтения, начальная школа, результаты, образовательная программа.

Abstract. This scientific thesis discusses the deep scientific foundations of the international assessment program EGRA (Early Grade Reading Assessment), designed to systematically and effectively assess the level of reading literacy of students at the primary education stage, and the practical results achieved in Uzbekistan. The article discusses the essence of the EGRA program, the procedure for its implementation, and an analysis of the results obtained through this assessment program. The impact of digital technologies on the teaching process and its practical analysis are conducted.

Keywords: Keywords. EGRA, assessment, reading literacy, primary school, results, educational program.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning bilimli, savodli hamda raqamli texnologiyalardan xabardor bo’lishi juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, bu kabi tushunchalar boshlang’ich ta’limda qo’yilishi o’qituvchilarning zimmasiga bir qator vazifalarni yuklaydi. O’sib rivojlanayotgan yosh avlodni har tomonlama yuksaltirishda boshlang’ich ta’lim juda muhimdir. Shu jumladan, yoshlarning savodli bo’lishida, o’qish savodxonligi darslari ham bu jarayonning katta qismini egallaydi. Yoshlarning matnni qay darajada o’qiy olishi, uni



tushunishi hamda amaliy hayotda qo'llashi muhimdir. Savodli bo'lgan o'quvchilar kelgusida qolgan barcha bilimlarni oson o'zlashtira oladi.

O'quvchilarning o'qish savodxonligi darslarini nazorat qilib borishda va ularning bilimini baholashda bir qator baholash dasturlari mavjud. Ulardan biri EGRA (Early Grade Reading Assessment) xalqaro baholash dasturi bo'lib, bu o'quvchilarning o'qish tezligi, o'qiganini tushunish darajasi, harfni tanish va tovush-harf munosabatini anglay olish kabi erta savodxonlik ko'nikmalarini baholaydi. Bu baholash esa ta'lim jarayonida muammoli nuqtalarni erta aniqlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida individual yondashuvni kuchaytirish hamda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

XXI asr bu raqamli texnologiyalar asri desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Jadal rivojlanib borayotgan bu zamonda, raqamli texnologiyalardan samarali va o'rinli foydalanish barcha uchun qiziqarli va foydali bo'lib bormoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarini dars jarayonida qo'llash nafaqat o'qituvchi uchun yordamchi, balki, o'quvchilarning bilim o'zlashtirishida ham katta yordam bermoqda. Faqatgina bu texnologiyalardan o'rinli va samarali foydalanilsa bas. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari o'yin faoliyati yoshida bo'lganligi uchun rang-barang, qiziqarli, musobaqali, ko'rgazmali narsalarni juda yaxshi ko'radi va o'zlashtirishi ham osonlashadi. Raqamli texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash esa, bir qator afzalliklarni keltirib chiqaradi.

Asosiy qism . Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning fikrlash dunyosi, kommunikatsiyasi, tasavvuri, dunyoqarashi, nutqini rivojlantiradigan, kelgusida esa boshqa fanlarni egallashda poydevor bo'ladigan fanlardan biridir. Bu jarayonda o'quvchilarning bu fan yuzasidan olgan bilimi va uning qay darajada ekanligi muhimdir. O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning matnni qay darajada o'qishi, uni tushunishi va anglashini baholashda EGRA xalqaro baholash dasturidan foydalanamiz. Early Grade Reading Assessment (EGRA) dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish tezligi, aniqligi, matnni tushunish darajasi va og'zaki nutq ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. EGRA dasturi USAID hamda RTI International bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi bo'yicha asosiy ko'nikmalarini o'lchashga xizmat qiladi. USAID (United States Agency for International Development) — AQShning xalqaro taraqqiyot bo'yicha agentligi bo'lib, ta'limda mustahkam asosiy ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratadi. USAID EGRA dasturining yaratilishi va jahon bo'ylab joriy etilishiga bevosita homiylik qilgan. Bu dastur 100 dan ortiq tillarda va 65 dan ortiq davlatda qo'llanilgan. EGRA — bu o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini og'zaki baholovchi diagnostik tizim hisoblanib, odatda 1-3 sinflarda o'tkaziladi va o'quvchilarda besh asosiy komponentni o'lchaydi: fonematik anglash, tovush va harf uyg'unligini tushunish, so'z boyligi, o'qish tezligi va matnni anglash darajasi.

EGRA dasturining asosiy maqsadi: o'quvchilarda o'qishning poydevor ko'nikmalari qay darajada shakllanganini erta bosqichda aniqlash va ta'lim jarayonidagi muammolarni vaqtida aniqlashdan iborat.

Respublikamizda ham mazkur dastur amaliyotga joriy etilmoqda. Dastur yurtimizda ilk marta 2019-yil noyabr oyida USAID ko'magida pilot loyiha sifatida sinovdan o'tkazildi. Mazkur dastlabki baholash o'quvchilarning erta savodxonlik ko'nikmalarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, dastur natijalari boshlang'ich ta'limning holatini chuqur o'rganish imkonini berdi. Ushbu pilot tajribadan so'ng EGRA metodikasining samaradorligini tasdiqlandi va natijada baholash doirasini kengaytirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shu

qarorga muvofiq, 2021-yil 15-noyabr 7-dekabr kunlari O‘zbekiston tarixida ilk bor milliy miqyosda keng ko‘lamli EGRA baholashi o‘tkazildi. Ushbu baholashda umumiy hisobda 11000 dan ortiq o‘quvchi qamrab olindi, baholash 937 ta davlat maktabida o‘tkazildi. Bunda o‘quvchining o‘zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg‘iz va turkman tillari, shuningdek, ikkinchi til sifatida o‘zbek tiliga oid ko‘nikmalari baholandi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning o‘qish darajasidagi umumiy holatni aniqlash, mavjud muammolarni ko‘rsatish va ta’lim sifatini oshirish uchun muhim tahliliy ma’lumotlar taqdim etdi. EGRANing O‘zbekistonda joriy etilishi boshlang‘ich ta’limdagi yondashuvni sifat jihatdan yangilashga, o‘quvchilarni erta bosqichda baholashning samarali tizimini yaratishga xizmat qilmoqda

EGRA xalqaro baholash standartlarini dars jarayonida qo‘llashda raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali va ko‘zlangan maqsadga aniq yetib borishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni va multimedia vositalarni masalan, animatsiyalar, video-roliklar, audio-matnlar, interfaol mashqlarni dars jarayonida qo‘llash bir qator afzalliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan: vizuallik oshadi, o‘quvchi eshitib, yozgan narsasidan ko‘ra, ko‘rgan materialni tez tushunadi va uzoq muddat yodida saqlanib qoladi. Bundan tashqari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, faollashadi, guruhlarda jamoa bo‘lib ishlaydi, hamkorlik shakllanadi.

Dastur maktablarda pedagogik kuzatuv metodi sifatida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darslari 2 hafta davomida kuzatib borildi. Bu jarayonda dars umumiy tahlil qilinib, o‘quvchilarning faolligi, ularning bilim darajasi, imkoniyati va qobiliyati aniqlandi. Kuzatuvlar maxsus ishlab chiqilgan "Kuzatuv varaqasi" asosida quyidagi mezonlar bo‘yicha olib borildi:

O‘quvchining matnni vizual qabul qilishi (ko‘z bilan kuzatishi).

Notanish so‘zlarni o‘qiy olishi yoki bo‘g‘inlash holatlari.

Raqamli o‘quv vositalari (elektron doska, planshet) qo‘llanilganda o‘quvchining diqqat bilan darsni tinglashi.

Kuzatuvlar natijasida o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi xatti-harakatlarida quyidagi farqlar aniqlandi:

Kuzatuv mezon	An’anaviy dars jarayonida	Raqamli texnologiya qo‘llanilganda
Diqqatning davomiyligi	8-10 daqiqadan so‘ng o‘quvchilarning chalg‘ishi kuzatildi.	Dars oxirigacha (35-40 min) o‘quvchilarda diqqat va yuqori qiziqish saqlanib qoldi.
Matnni kuzatish	O‘quvchilarda navbatdagi qatorni yo‘qotib qo‘yishdi yoki barmoq bilan ulab o‘qishdi.	Ekrandagi rangli markerlar va elektron matnlar yordamida adashish holatlari 50% ga kamaydi.
Psixologik to‘siqlar	O‘ziga bo‘lgan ishonchi past, matnni o‘qishda qo‘rquv bor	Interaktiv o‘yinlar orqali o‘qishda o‘quvchilar qo‘rquvdan xalos bo‘ldi va faollashdi.

Pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ta’lim jarayonida faqat an’anaviy metodlardan foydalanish o‘quvchilarda tez charchash, zerikish va diqqatning tez tarqalishiga sabab bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar bilan esa o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishi oshadi, vizual diqqati kuchayadi

Xulosa. EGRA xalqaro baholash dasturi boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligi darslarini baholashda samarali vosita ekanligi aniqlandi. O’qish savodxonligi darslarida raqamli texnologiyalarning qo’llanilganda esa, o’quvchilarning o’zlashtirishi oshdi va faollashdi. Shu bilan bir qatorda EGRA tadqiqotni tashkil etish va topshiriqlarni tayyorlash va ularni amalga oshirish uchun barcha ta’lim loyihalari va dasturlari ishlab chiqilishi kerak bo’ladi. EGRA tadqiqotni tashkil etish va topshiriqlarini tayyorlash oddiy bir va ikki bo’g’inli so’zlar, qisqa jumlar va tanish hikoyadan foydalanish kerak. O’qish matnlarining milliy o’quv dasturiga muvofiqligi qanchalik tasdiqlangan bo’lsa, matnlardan, parchalardan foydalanish ham o’qish qismlarini tanlashning to’g’riligi yoki maqsadga muvofiqligi bilan bog’liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Savodxonlik bo’yicha baholash natijalari hisobotlari, 2022.
2. Davlatova Saidaxon Tojimuhammadovna: EGRA dasturi asosida o’quvchilarning o’qish savodxonligidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish metodikasi, 2023.
3. RTI International. Early Grade Reading Assessment (EGRA) Toolkit. Washington, DC, 2016. USAID. EGRA Implementation Guide. Washington, 2015.
4. Gove, A., & Wetterberg, A. The Early Grade Reading Assessment: Applications and Interventions to Improve Basic Literacy. RTI Press, 2011.
5. UNICEF. Early Grade Reading Assessment Country Reports. New York, 2018–2022.
6. USAID Uzbekistan. EGRA Uzbekistan Early Grade Reading Assessment Report. Tashkent, 2021–2022.
7. USAID. The Early Grade Reading Assessment (EGRA) in Tajikistan: Retrospective Briefing Note. – Dushanbe, 2022.
8. RTI International. Report on the Self-Administered EGRA/EGMA Pilot in Ghana (English). – Washington, 2020.
9. Abadzi, H. (2018). Teaching Reading in Early Grades: A Guide for Practitioners. – World Bank.
10. UNESCO. (2021). Monitoring Literacy Skills in Early Grades. – Paris: UNESCO Institute for Statistics.
11. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ta’limni rivojlantirish milliy strategiyasi – 2030. – Toshkent, 2020.
12. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish sifatini tekshirishga bag’ishlangan rus tilidagi sayt [Elektron resurs]. -PYL: http://www.centeroko.ru/pirls06/pirls06_pub.htm/